

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ALBERT EYNSHTEYN
(1879-1955)

2022
YANVAR
№36



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
9-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-9**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-9**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 36-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 33 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохидат Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ TUTGAN ЎРНИ

1. Рахматуллаева Дурдона Равшановна ЁШЛАР ВА ХОТИН ҚИЗЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ – ДАВР ТАЛАБИ.....	7
2. Д.А.Зарипова, Д.Р.Миралиева МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ЖЕНСКОГО И МОЛОДЕЖНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	9
3. Ибрагимова Ирода Рашид Қизи	11
ИҚТИСОДИЁТГА ИННОВАЦИЯ ЖАЛБ ҚИЛИШДА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАРНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ МАСАЛАЛАРИ	11
4. Ibragimova Madina Ismoilovna, Abdullayeva Amira INNOVATIONS IN SERVICE SECTOR	14
5. X.Yakubova, H.Iskandarov AGROMARKETINGNI BOSHQARISH VA REJALASHTIRISH.....	17
6. Jumaniyazova Yodgora Egamovna SOLIQ SIYOSATI VA UNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RN.....	19
7. Oripova Ra'no Tolibovna O'QUVCHILARGA IQTISODIY TARBIYA BERISH ASOSLARI.....	21
8. Satvoldiyeva Dildora Mashrabovna BYUDJET DEFITSITI: MOHIYATI, TA'RIFI, TURLARI VA VUJUDGA KELISH SABABLARI.....	23
9. Tohirov Dostonbek Baxtiyorjon o'g'li, Tohirov Asilbek Tolibjon o'g'li ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISHDA TRANSPORT- LOGISTIKASINING O'RN VA AHAMIYATI.....	25
10. Z.S.Djabbarova, R.Q.Jumaniyazova TURIZM SOHASIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TUTGAN O'RN.....	27
11. D.Xudayberganov, H.Buranova MEHMONDO'STLIK SANOATIDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISHNING BA'ZI JIHATLARI.....	29
12. Yaxshimuratova Marxabo Ibodullayevna IQTISODIY BILIM ASOSLARI FANINI O'QITILISHIGA QO'YILGAN ZAMONAVIY TALABLAR.....	31



ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

ЁШЛАР ВА ХОТИН ҚИЗЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ – ДАВР ТАЛАБИ

Рахматуллаева Дурдона Равшановна

Педагогик инновациялар институти доценти, PhD.

Тел.: +998 33 062 04 65

Анотация. Ушбу мақолада ёшлар ва хотин қизлар тадбиркорлигини бугунги кунда ривожлантириши масалалари ва улар олдидagi тўсиқларни бартараф этиш вазифалари ёритилган.

Калит сўзлар: ёшлар, хотин қизлар, тадбиркорлик, ўз ўзини банд қилиш.

Бугунги кунда мамлакатимиз иқтисодий, сиёсий ва ижтимоий ҳаётининг ҳамма жабҳаларида хотин-қизларнинг фаоллигини кўтариш, уларнинг таълимий ва касбий кўникмалари ҳамда бандлигини таъминлаш бўйича ҳар томонлама кўмак кўрсатиш, тадбиркорлик ва ишбиармонлик ташаббусларини янада қўллаб-қувватлаш, жойларда “Ёшлар дафтари” ва “Аёллар дафтари”ни юритиш ва унга киритилган ёшлар, хотин-қизларнинг муаммолари, эҳтиёжлари ва қизиқишларини тизимли ўрганиш, таҳлил қилиш ва ҳал этиш борасидаги ишларни сифат жиҳатдан янги босқичга олиб чиқиш устувор вазифалардан бири ҳисобланади.

Иқтисодий инқироз шароитида, камбағалликни енгишда ва реал даромад манбаига эга бўлишда тадбиркорлик фаолияти минтақадаги хотин-қизлар ва ёшларнинг асосий даромад манбаига айланиб бормоқда, чунки уларнинг кўпчилиги оиласига ёрдам бериш учун ўз тадбиркорлик фаолиятини очиш ва юритишга мажбур бўлмоқдалар. Бу эса, уларнинг тадбиркор сифатидаги фаолияти мамлакатдаги ишбилармонлик муҳитининг самарадорлигига жуда боғлиқдир.

Бироқ, мамлакатимизнинг аксарият ҳудудларда хотин-қизлар ва ёшлар тадбиркорлигини ривожлантириш учун барча шароитлар ҳам қулай эмас.

Тадбиркорликни йўлга қўйи ва ривожлантириш бўйича улар муаммоларга дуч келмоқдаларки, уларнинг аксарияти фақат хотин-қизлар ва ёшлар ташкил этади. Шуни таъкидлаш керакки, тадбиркорлар дуч келадиган кўплаб тўсиқлар умумий бўлса-да, уларни енгиш хотин-қизлар ва ёшлар учун эркакларникига қараганда анча қийин, чунки:

тадбиркорлик фаолиятига оид ахборотнинг етишмаслиги;

тадбиркорлик фаолиятини бошлаш учун молиялаштиришнинг чекланганлиги ва бошланғич капиталнинг етишмаслиги;

тадбиркорлик ва касбга ўргатувчи таълимий курсларнинг камлиги;

тадбиркорлик фазилатлари ва кўникмаларининг етишмаслиги;

Ушбу муаммо ва тўсиқларни бартараф этиш бўйича охириги 3 йил давомида катта ўзгаришлар амалга оширилмоқда.

Зеро, жамиятда хотин-қизлар ва ёшларнинг ролини ошириш ҳамда уларнинг бандлигини таъминлаш чора-тадбирлари бўйича ўтган йиллар давомида бир қанча фармон ва қарорлар қабул қилиниб, ушбу масала юзасидан бир қанча видеоселектор ўтказилди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев томонидан хотин-қизларнинг 55 фоизи ўрта маълумотли эканлиги, ишсиз ёшларнинг ҳам кўпчилиги замонавий билим ва ҳунарларни эгалламаганлиги, уларни доимий иш билан таъминлаш учун касб-ҳунар ўргатиш, ишбилармонлик учун зарур билим ва маблағ зарурати мавжудлиги ҳамда бу масаланинг ҳам ечими кўрсатиб берилди. Хотин-қизлар ва ёшлар бандлигини таъминлаш бўйича мутлақо янги тизим жорий қилиниши, бунда “Ижтимоий шартнома” тажрибаси қўлланиши лозимлиги таъкидлаб ўтилди [1].



“Ижтимоий шартнома” тажрибасида, аввало, фуқаро касб ўрганиши, ишга жойлашиши, ўзини ўзи банд қилиши учун давлат томонидан моддий ва ижтимоий кўмак кўрсатилади. Бунда касб-хунар ва тадбиркорликка ўқитиш бўйича курсларни муваффақиятли тамомлаб, уларнинг сертификатини олган шахсларга ўз бизнесини бошлаш учун микрокредит ажратилади. “Микрокредитбанк” томонидан нодавлат таълим ташкилотлари махсус сертификатини олган аёллар ва ёшларга ўз бизнесини ташкил қилиш учун 33 миллион сўмгача бўлган микдордаги микрокредитлар таъминотсиз ажралиши, бунда микрокредитлар 3 йил муддатгача 6 ойгача имтиёзли давр билан Марказий банкнинг асосий ставкасида ажратилиши белгиланган.

Ижтимоий шарномадан кўзланган асосий мақсад, аҳолини камбағалликдан ҳамда қийин вазиятдан олиб чиқиш, давлатнинг кам таъминланган аҳолига кўрсатаётган ёрдамини аниқ йўналтириш ҳамда самарадорликка эришиш ҳисобланади.

Ҳозирда, тадбиркорликни ривожлантиришда ёшлар ва хотин-қизларнинг ролини ошириш ва уни амалда кенг қўллашнинг ҳуқуқий жиҳатлари бўйича орттирилган ижобий тажриба мавжуд, аммо ёшлар ва хотин-қизларнинг меҳнат фаолиятларини янада яхшилаш мақсадида амалга ошириладиган вазифалар кўламини кучайтириш, қолаверса, ҳудудларда тарғибот ва ташвиқот ишларини олиб бориш зарур. Бунинг учун эса қуйидагича муҳим вазифаларни ҳал этиши лозим:

- ёшлар ва хотин-қизларнинг тадбиркорлик фаолияти бўйича саводхонлигини ошириш,
- ҳудудларда хунармандчилик, касаначилик, томорқа бизнесларини ривожлантириш асосида янги иш жойларини барпо этиш ва ўз ўзини бандлигини таъминлаш;
- малака даражасини ривожлантиришда қисқа муддатли курсларни ташкил этиш ва ўқув марказлари фаолиятини кенгайтириш;
- тадбиркорликда ва меҳнатда банд бўлган ёшлар ва хотин-қизларни қўллаб-қуватлаш ҳамда имтиёзларни кенгайтириш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 8 октябрдаги Жамиятда аёллар ва ёшларнинг ролини ошириш ҳамда бандлигини таъминлаш чора-тадбирлари муҳокамаси юзасидан ўтказилган видеоселектор йиғилиши.
2. Д.Рахматуллаева Ёшларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш // “Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” мавзусидаги 28-сон 1-қисм конференцияси –Т.: «Tadqiqot», 2021. – 18-20 б.



МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ЖЕНСКОГО И МОЛОДЕЖНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Д.А.Зарипова – доцент ТУИТ,
старший научный сотрудник проекта,
Д.Р.Миралиева – исследователь, младший
научный сотрудник проекта.

Аннотация. В данной статье проводится анализ международного опыта развития женского и молодежного предпринимательства и вырабатываются рекомендации и предложения.

Ключавые слова: женское и молодежное предпринимательство, бизнес, предпринимательская деятельность, кредит, привилегия, развитие предпринимательства.

Развитие женского предпринимательства сегодня является одним из важных драйверов для роста региональной экономики. В нашей стране особое внимание уделяется таким вопросам, как забота о женщинах, осуществление скоординированной работы по обеспечению их занятости, расширение современных подходов к разработке программ занятости.

А также, проводится большая работа по развитию молодежного и женского предпринимательства. Есть ряд возможностей для развития своего предпринимательства:

- льготные кредиты по процентной ставке центрального банка для молодых людей и женщин, желающих начать бизнес;
- беззалоговые кредиты для молодых людей и женщин, желающих начать свой бизнес;
- возможность платить 30% арендной платы за пустующие здания;
- субсидии на приобретение семян и саженцев, а также оборудования

Кроме того, государством реализован ряд государственных программ развития молодежного и женского предпринимательства: «Молодежь 1+1», «Каждая семья – предприниматель», «Наше молодежное будущее», «Поддержка женщин и семьи», и т.д. придет.

Таким образом, по нашему мнению, женское предпринимательство имеет особую структуру мотиваций занятий бизнесом, которая отличается от мотиваций мужчин. Это гендерное отличие позволяет рассматривать женское предпринимательство как особый вид предпринимательской деятельности.

Проблема женского и молодежного предпринимательства более интенсивно изучается во всем мире, особенно в плане необходимости государственной поддержки женского предпринимательства в стремлении к экономическому процветанию. В Соединенных Штатах Конгресс США учредил Отдел малого бизнеса для женщин, через который Конгресс принял Закон о женском бизнесе (1988 г.).

А также, программа развития женского предпринимательства Международной организации труда (ILO-WED) направлена на расширение возможностей начинающих и существующих женщин-предпринимателей, которые хотят начать, вести и развивать свой бизнес, а также на создание благоприятных условий для инклюзивной, устойчивой и устойчивой экономики. Это достигается за счет устранения гендерного дисбаланса в развитии предприятий, чтобы увеличить вклад женщин-предпринимателей в рост и устойчивое развитие и обеспечить их значимое участие в экосистемах предпринимательства. ILO-WED использует построенную на основе набора проверенных инструментов для реализации целенаправленных действий по расширению прав и возможностей женщин-предпринимателей, помогая им обеспечить достойную работу для себя и других и преодолевать барьеры на пути развития продуктивного и устойчивого бизнеса.

Программа МОТ «Развитие женского предпринимательства» направлена на повышение экономических возможностей женщин в результате поддержки тех из них, кто начинает, оформляет или развивает свои предприятия, а также путем включения вопросов по гендерному равенству в деятельность МОТ при развитии предприятий. Такой подход к программе отмечен в принятой Административным Советом в марте 2008 года стратегии МОТ по развитию женского предпринимательства. Работа МОТ по этой программе также



непосредственно связана с первой и третьей Целями развития тысячелетия, направленными на искоренение бедности, оказание содействия вопросам гендерного равенства и расширение прав и возможностей женщин.

Эти учебные программы являются одними из крупнейших программ бизнес-обучения в мире, помогая потенциальным предпринимателям формировать и развивать предпринимательские знания, навыки, компетенции и компетенции, соответствующие различным этапам развития бизнеса.

Развитию женского предпринимательства будет в значительной степени способствовать расширение и распространение таких международных государственных программ по всему миру. В целях развития женского предпринимательства и расширения возможностей женщин для самовыражения в экономике и на рынке труда необходимо:

- увеличить государственную программу поддержки женского предпринимательства и продвижения его в регионах;

- развитие систем долгосрочного кредитования и микрокредитования женского предпринимательства;

- расширение информационных технологий в развитии женского предпринимательства;

- расширение спектра услуг, занимающих высокие позиции на рынке земледелия, садоводства, теплиц, пошива, труда с учетом специфики региона;

- совершенствование системы мер поддержки женского предпринимательства.

Список используемой литературы

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 5 мартдаги “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг жамият ҳаётидаги фаол иштирокини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” Қарори.

2. D.Raxmatullayeva Contents of preparation of future entrepreneurs of motor transport enterprise / International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD), ISSN: 2456-6470, Special Issue | International Research Development and Scientific Excellence in Academic Life, March 2021, pp.133-134.



ИҚТИСОДИЁТГА ИННОВАЦИЯ ЖАЛБ ҚИЛИШДА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАРНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ МАСАЛАЛАРИ

Ибрагимова Ирода Рашид Қизи

Тошкент Давлат Иқтисодиёт

Университети докторанти

Тел: +998 90 348 56 49

gafuribragimov@mail.ru

Аннотация: Ўзбекистон иқтисодиётига инвестиция жалб қилишда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини жорий этишнинг зарурияти ва аҳамияти, халқаро стандартларга ҳисоботларни трансформация қилиш масалалари ўрганилиб, халқаро стандартларга ўтиш жараёни тадқиқ қилинган. Инвестиция муҳити яратишда ҳисоботлар шаффофлигини ошириш ва инвестиция жалб қилиш имкониятлари бўйича тегишли хулосалар берилган.

Калит сўзлар: молиявий ҳисоботлар, халқаро стандарт, инвестиция муҳити, молиявий ҳисоботларни трансформацияси, молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот, фойда ва зарарлар ҳамда умумлашган даромадлар.

Ўзбекистон Республикасини жаҳон ҳамжамиятига интеграцияси жараёнида бухгалтерия ҳисобининг халқаро тизимига мос келадиган ҳисоб тизими асосида ташкил этилиши натижасида молиявий ҳисоботларни кўрсаткичлари ва уларни тақдим этиш тизимида ҳам сезиларли даражада ўзгаришлар юзага келди.

Ҳозирда жаҳон тажрибасидан фойдаланган ҳолда сифат жиҳатидан янги бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ва молиявий ҳисоботларни тақдим этиш тизими шакллантирилиб, унда инвестицион муҳит учун қулай шароит яратадиган замонавий бухгалтерия ҳисоби тизимини қўлланиши учун имконият яратилмоқда. Акциядорлик жамиятларининг операцияларини бухгалтерия ҳисобида акс эттириш ҳам халқаро стандартларга жавоб берадиган тарзда олиб бориш учун молиявий ҳисоботни халқаро стандартлари асосида ташкил этиш, ҳисоб тизимини халқаро амалиётда қабул қилинган тизимга мослаш, бухгалтерия ҳисобининг асоси бўлган счётлар режаси ишлаб чиқилиб амалиётга тадбиқ этилиши ҳисоб тизимини халқаро амалиётга мос равишда юритиш имкониятини яратади.

Ўзбекистоннинг жаҳон иқтисодий ҳамжамиятига қўшилишига, халқаро ташкилотлар фаолиятидаги иштирокини кенгайтириши бухгалтерия ҳисоби миллий стандартларининг жаҳон амалиётида қабул қилинган услубий тамойиллар билан бирлигини, миллий кўрсаткичларни хорижда қўлланилаётган ана шундай кўрсаткичлар билан мувофиқлашувини талаб этмоқда. Иқтисодиётга инвестиция жалб этиш шароитида мулкчилик шакллари турли хил бўлган акциядорлик жамиятларининг фаолиятини ҳисоби, уларнинг фаолиятини назорат ва таҳлил қилиш ва маъмурият томонидан тезкор қарорларнинг қабул қилинишига асос бўладиган зарур маълумотларни асосан бухгалтерия ҳисоби тақдим этади.

Бугунги кунда келиб, ривожланган мамлакатларда инвестиция фаолиятини ривожлантириш жараёнида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини жорий қилиниши асосий ролни бажармоқда. Шунинг учун ҳам сўнгги йилларда Ўзбекистонда мазкур тизимни ривожлантириш ва уларнинг капиталлашув даражасини ошириш бўйича бири-биридан муҳим бўлган қарорлар, фармонлар қабул қилинмоқда, чора-тадбирлар режалари ишлаб чиқилмоқда.

Жумладан, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича “Ҳаракатлар стратегияси”да тижорат банкларининг капиталлашув даражаси ва депозит базасини ошириш, уларнинг молиявий барқарорлигини ва ишончлилигини мустаҳкамлаш макроиқтисодий барқарорликни янада мустаҳкамлаш ва юқори иқтисодий ўсиш суръатларини сақлаб қолишнинг зарурий шартларидан бири сифатида эътироф этилган [1].

Молиявий ҳисоботларни халқаро стандартлари асосида молиявий ҳисоботларни тузиш жараёнида асосий масала унга ўтиш йўллари аниқлаш асосида акциядорлик жамиятларининг молиявий ҳисоботларини МХХСлари асосида трансформация қилиш масаласи муҳим ҳисобланади. Чунки Ўзбекистон Республикасида айниқса молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартига ўтиш бўйича кейинги йилларда, шу жумладан Ўзбекистон



Республикаси Президентининг ПҚ-4611 сон 2020йил 24 февралдаги “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” қарорида шундай таъкидлаб ўтилган:

1. Белгилансинки, акциядорлик жамиятлари, тижорат банклари, суғурта ташкилотлари ва йирик солиқ тўловчилар тоифасига киритилган юридик шахслар:

2021 йил 1 январдан бошлаб, МҲХС асосида бухгалтерия ҳисоби юритилишини ташкил этади ва 2021 йил якунларидан бошлаб молиявий ҳисоботни МҲХС асосида тайёрлайди, қонун ҳужжатларида МҲХСга ўтишнинг эртароқ муддатлари назарда тутилган юридик шахслар бундан мустасно;

Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ молиявий ҳисоботни ихтиёрий равишда МҲХСга мувофиқ тайёрлайдиган тадбиркорлик субъектлари бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартлари бўйича молиявий ҳисобот тақдим этишдан озод этилади[2]. Демак акциядорлик жамиятлари 2021 йил 1 январдан бошлаб, МҲХС асосида бухгалтерия ҳисоби юритилишини ташкил этади ва молиявий ҳисоботларини халқаро стандартлар асосида тақдим этади.

Шу сабабли акциядорлик жамиятларида молиявий ҳисоботларни халқаро стандартларга ўтказиш бўйича тегишли ишларни амалга ошириш мақсадида трансформация масаласига катта эътибор қаратилмоқда. Шу жумладан МҲХСларни биринчи марта қўллашда ёки миллий стандартлар асосида тузилган молиявий ҳисоботни трансформация қилишдан олдин муҳит, шарт-шароит ва маълум тайёргарлик ишлари зарурияти келиб чиқади. Шу сабабли ушбу масалада иқтисодий адабиётларда турлича фикрлар мавжудлиги ушбу соҳани ҳали яхши ўрганилмаганлигини кўрсатади.

Ушбу масалада Ўзбекистондаги акциядорлик жамиятларини жаҳон иқтисодий тизимига интеграциялашувида молиявий ҳисоботларнинг халқаро стандартларини ўрнини белгилашда муҳим ҳисобланади. Шу сабабли чет элда акциядорлик жамиятларини МҲХС ўтиш жараёнини очиб бериш масаласида проф.В.Ф.Палий томонидан шундай фикр билдирилган: “Халқаро интеграциялашув жараёнида иқтисодий ислохотларни амалга ошириш ва молиявий ҳисоботларнинг халқаро стандартларига ўтиши учун шарт-шароит яратилиши муҳим ҳисобланди. Шу сабабли бу масалада йирик бизнеснинг жаҳон иқтисодий тизимига интеграциялашуви натижасида молиявий ҳисоботларни бизнес вакиллари тушунадиган шаклда тақдим этиш муҳим масала ҳисобланади. Ушбу масалада молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ҳисоботларни трансформация қилиш ва уни халқаро талабларга мослаштиришни зарурияти вужудга келади[3]. Шундай қилиб, Россияда акциядорлик жамиятларининг молиявий ҳисоботларини халқаро талабларга мослаштиришда албатта молиявий ҳисоботларини трансформация асосида тақдим этиш талаби қўйилмоқда ва натижада компанияларнинг фаолиятини халқаро стандартлар асосида юритиш мажбурлигини тақоза қилади.

Ўзбекистонни жаҳонга интеграциясини ривожланиши ва молиявий ҳисоботларни умумқабулқилинган шаклда тақдим этиш жараёнида проф. А.К.Ибрагимов ва Н.Ризаевларнинг фикрича “Ўзбекистонда бухгалтерия ҳисобини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида ташкил этиш ва молиявий ҳисоботларни тузиш жаҳон интеграциясига янада кенгроқ кириб бориш имкониятини беради. Натижада Республикамизда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш масаласи ҳисоб ва ҳисоботни модернизация қилишнинг бош масаласи ҳисобланади”[4]. Юқорида билдирилган фикрлардан умумлаштириш асосида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари бухгалтерия ҳисобини юритиш ва молиявий ҳисоботни тузишга доир талабларни бажариш ва молиявий ҳисоботни тузишга доир бўйилган талабларни бажаришни белгилаб беради. Ушбу масала Ўзбекистондаги акциядорлик жамиятларининг акцияларини жаҳон фонд биржаларига жойлаштирилиши учун бериладиган ахборот ва молиявий ҳисоботларни халқаро талабларга мослаб тақдим этишнинг заруриятини келтириб чиқаради[7].

Акциядорлик жамиятларида молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда жойлаштирилиши лозим бўлган ахборотларни молиявий ҳолат таҳлили учун қулай бўлган тартибда жойлаштирилиши керак. Бухгалтерия моддаларини жойлаштиришда уларнинг ликвидлик даражасига эътибор бериш керак. Молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда моддаларни жойлаштиришда битта қоидага амал қилинади: баланс моддаларини жойлаштиришда уларнинг ликвидлик даражаси ҳисобга олинади, яъни тез ликвидли активлардан қийин



ликвидли активларга, худди шунингдек, қисқа муддатли мажбуриятлардан узоқ муддатли мажбуриятларга ўтиш тартибида жойлаштирилади[8]. Шунда жорий активларни жорий мажбуриятлар билан солиштириш имконияти туғилади. Бу эса баланснинг ликвидлигини аниқлашда ахборот фойдаланувчиларга қўлай имконият туғдиради. Бугунги кунда молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботнинг халқаро стандартларга мувофиқ ҳолатда янги таркибини (янги шаклини) ишлаб чиқишга зарурият бор.

Бизнинг фикримизча, акциядорлик жамиятларида молиявий ҳисоботларни халқаро стандартлар жорий этилиши инвестицион жозибadorликни янада оширади ва қуйидаги омилларни алоҳида таъкидлаш мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз:

1) Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари тизими имкон қадар МҲХСларига уйғун бўлишини таъминлашимиз керак. Чунки улар ўртада тафовут мавжудлиги белгиланган меъёрдан кўпроқ бўлса қўллаш жараёнини анча қийинлаштиради ва молиявий ҳисоботни инвесторлар тушуниши қийин бўлади ва биз кутган натижани бермайди;

2) Ўзбекистон Республикасидаги акциядорлик жамиятларининг бош бухгалтерларини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида молиявий ҳисоботларни тайёрлаганлиги учун моддий рағбатлантириш тизимини такомиллаштириш, уларнинг этика қоидаларига риоя қилишини таъминлаш, зарур бўлса трансформация жараёнини ўқитиш ишларини ташкил қилиш ҳисоботларни ишончлилигини оширади;

3) Акциядорлик жамиятларида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида бухгалтерия ҳисобини юритишнинг асоси бўлган ҳисоб сиёсатини мукамаллаштириш, уни молиявий ҳисобот тамойилларига тўлиқ риоя қилган ҳолда тузилиши ва банк тизимида халқаро стандартлар талабларига мувофиқ молиявий ҳисоботни тузиш инвестиция жалб этишнинг асосий омил бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича “Ҳаракатлар стратегияси” дастури. //Lex.uz.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-4611 сон 2020 йил 24 февралдаги “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” қарори.//Lex.uz/
3. Палий В.Ф. Международные стандарты учета и финансовой отчетности. М.; Учебник, Издательства “ИНФРА-М” 2007., -512с. С.18.
4. Ибрагимов А.К.,Ризаев Н.Қ. ва бошқалар. Тижорат банкларида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. Т.: Иқтисод-молия, 2020. 560б.
5. Генералова Н.В.Международные стандарты финансовой отчетности. Учебник для вузов. / О.А. Агеева, А.Л. Ребизова. – М.: Юрайт, 2013. – 447.
6. Ibragimov A.K. Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari. /A.K.Ibragimov, M.D.Marpatov, N.K.Rizaev. T.: Moliya, 2016. 370 b.
7. Ibragimova I.R., Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.
8. Ibragimova I.R. Ahatov O. Improvement of financial analysis in banks on the basis of international standards.// The 1 st International scientific and practical conference “Science and ducation: problems, prospects and innovations” (October 7-9, 2020) CPN Publishing Group, Kyoto, Japan. 2020. 521 P-



INNOVATIONS IN SERVICE SECTOR

Ibragimova Madina Ismoilovna,
Samarkand institute of economic and
services, teacher
тел: +99897777-26-77,
e-mail: m.ibragimovauzb@gmail.com
Abdullayeva Amira, student

Abstract. This article touches on the innovative development of the service sector. The modern economy cannot exist without novelty. In a globalized economy, innovation has become a key force for growth; through innovation, enterprises increase their productivity and meet the growing and ever-changing market demand, and countries thereby achieve sustainable economic growth.

Keywords: innovation, service, business, firm, globalization.

The most important characteristic of nowadays economy is its influence of plenty of socio-economic factors. Customers are more attentive to their rights and privileges due to increased demand of customer service. Organizations are informed about increase in dominance of customers over the economy. In such kind of case, service became one of the main issues to deal with.

The change not only has influenced manufacturing organizations but also the economies across the world. As a result, the popularity and necessity of service has been increased exponentially. This new circumstance, in one hand, has provided excellent opportunities for growth of the business with the help of value added service on the other hand, has exposed a range of challenges that they (firms) have to be tackled efficiently. The leaders of these organizations are quite aware of them. They are concerned in maintaining the competitiveness of their organizations through a more value added service along with the core product.

Modern economies are dominated by service sector. It is impossible to say exactly when, how and why service started getting increased importance. Since the world war two, world economy has become more and more complicated. A dramatic change has been taken place in the composition of the economies across the nations. These changes could not be identified very precisely as significant service output is created from unrecorded household work, many hidden services in large corporations, associated service in the manufacturing sectors and so on. For example, the contribution human resources functions, logistics, maintenance, etc. are not recorded or recognized accurately.

Various social, economic and technological factors, in addition to political factors have started influencing the firms more directly. It is quite difficult to say which factor(s) is responsible for the steady growth and popularity of service. In fact, there are a number of factors that have played a crucial role in this connection. Perhaps the most influential factor is the “need for service”. In common, the factors are higher level of disposable income and customers’ buying behavior, change in the demography, technological advancement, increase in the pace of globalization, intensification of professionalism, and changing nature of competitiveness of the businesses and as well as nations, etc.

Today firms compete on the basis of services, and not on the basis of physical products. Service is the key determinant of competitive advantage since products are quite difficult to differentiate. Traditional manufacturing sector is gradually being overshadowed by the rise of service sector. Customers are no longer satisfied with the physical products alone. At the same time, since products are so similar in terms of feature and performance and therefore, customers often cannot differentiate the products. In such a situation, embedded service is the one of the key determinants in differentiating products. Marketers are trying to attract customers by providing higher level of service than that of their competitors.

Innovation has become an essential element of firms’ competitive proposition. In many organizations innovation is at the top of the agenda. In highly globalized economy, it has become the key force for growth, competitiveness and economic development; through innovation an enterprise enhance their productivity and meet the increasing and constantly changing market demand, and countries thereby achieve sustainable economic growth.

It is widely recognized and appreciated that the ability to innovate can change the fundamental



rules of competition. The capability to innovate and to bring innovation successfully to market will be a crucial determinant of the global competitiveness of nations over the coming decades. According to Muller et al., development of innovative capabilities is the only means by which companies can sustain a competitive advantage. It is very much implied that the extent an offer is differentiated that is innovative and creative the greater is the chance of sustainable competitive advantage. Innovation promotes growth of a firm through the development of competence-enhancing products, processes and services.

The influence of technology is a never ending story. Technological advances influence the growth of service directly; particularly in the case of independent service offering and being a part of the total product package, etc. Thus, Service has become a business essential in manufacturing as well as the foundation for the new product development.

There is another significant change in the global economy the increased influence of knowledge across the world. Drucker mentioned that “We are moving to a society in which the basic resource of economy is knowledge, instead of capital and labor . Considered as an economic output, information and knowledge are more important than automobiles, oil, steel, or any of the products of the industrial age”. It (knowledge) is the most strategically important resources of the business and also the strategic determinants in success and failure of the business. The competitive advantage of the firms can be undercut overnight due to the new knowledge of the competitors. Knowledge not only provides an idea about the desired offer but also the desired service innate the product.

The implications of emerging issues in service.

Emerging Issues	Strategic Implications
<i>Information technology</i>	Empowered customer; intense customer involvement; shared information; similar offers and shorter product lifecycle, etc.
<i>Holistic approach</i>	Institutional involvement; capacity development, efficient alignment of resources, system and activities; intensive people integration and interaction, etc.
<i>Innovation and creativity</i>	Differentiated offers; greater access to customer information; capacity to innovate; useful means of sustainable competitive advantage and so on.
<i>Indispensability of service</i>	No product without embedded service; attracting customers through attached service, after sales service, customer satisfaction and so forth.
<i>Technology</i>	New offerings; increased utility; greater value to the customers and organization; faster and efficient service, technological capability development, new service idea, effective communication, and so on.
<i>Managing knowledge</i>	Strategic assets to configure innovative and intelligent offering; better customer profiling; better market information; sustainable source of competitive advantage, development of distinctive capability of the individuals as well as organizations and so forth.

Creative individuals are the main impetus of innovation process. It is also necessary to make innovation is the requirement of the job description otherwise people will lose their urge for innovation. Continuous up-gradation of knowledge-base through knowledge initiatives; alignment of resources in the line of business development policy and free flow of information and ensuring access to the knowledge database by the workers are simply vital.

In the knowledge era, businesses are facing a dramatic new competitive environment, which is characterized by abundant dynamic opportunities, possibilities and challenges. For the competitive advantage ‘right knowledge’ along with other factors, e.g. right time, place, etc. matters the most. In service, workers, process and customers are directly involved since production and consumption take place simultaneously. Therefore, the right skill with the right knowledge is a bare need to ensure right time and place.

Innovative service is the result of “innovative service concept” and obviously it starts from in depth understanding the customers’ needs. In the boundary-less virtual world network between customers and the organization has become an essential precondition for innovation, acquiring



new knowledge on customers and market.

By ensuring a continuous flow of innovation, a firm can attain competitive advantage and sustainability. In contrast, perhaps it (innovation) is the single most destructive force in an industry. It can destroy organization's capabilities. The dual nature of innovation necessitates careful managerial attention. Today's success formula might not be effectual in near future. The present state of competency may not be sufficient for tomorrow's success. Firms need to balance the competence-enhancing and competence-destroying forces in their innovation endeavors.

List of references:

1. Khokhlov Yu. E., Shaposhnik S.B. The economy basing on knowledge: social and economic tendencies and political purposes // Information society. 2002. Issue 1. P. 6.
2. Zaichenko S.A. Development of innovations in sphere of services // Forsyte. 2007, No. 1. P. 30.
3. Pashigoreva G.I. Problems of organization of innovative activity in service sphere // Problems of Contemporary Economy. 2006. No. 1-2. URL: <http://www.m-economy.ru/art.php3?artid=21359> - fn1.



AGROMARKETINGNI BOSHQARISH VA REJALASHTIRISH

Ilmiy rahbar, X.Yakubova,
TIQXMMI magistranti, H.Iskandarov
tel:+998944575797

Annotatsiya: Agromarketing tizimi o'z ichiga qishloq xo'jalik korxonalarini uning mahsulotlarini sotish bozorlari bilan bog'laydigan eng muhim bozor munosabatlari va axborot oqimlarini oladi hamda soha rivojlanishida axborot tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Agromarketing, agromarketing xususiyatlari, agromarketing tizimi, strategik va joriy rejalashtirish, strategiya, agrosanoat kompleksi.

Agromarketingni boshqarishning asosiy maqsadi – marketing muhiti holati va shunga mos keladigan qishloq xo'jalik korxonasi marketing faoliyati tizimi o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashdir. Marketingni boshqarish jarayonida boshqaruvchi tizim sifatida qishloq xo'jalik korxonasi rahbariyati va uning marketing xizmati namoyon bo'ladi. «Agromarketingni boshqarish» va «agromarketing xizmatini boshqarish» tushunchalarini adashtirib yubormaslik lozim. Birinchisi nazarda tutilganda korxonaning bozor faoliyatini amalga oshirish va uning asosiy maqsadiga erishishni samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan strategik va taktik xususiyatdagi choralar kompleksi tushuniladi. “Agromarketing xizmatlarini boshqarish” esa agromarketing ko'rsatadigan turli xizmatlarni rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirish bilan bog'liq faoliyat bo'lib, agromarketingni boshqarishning bir qismidir. Agromarketingni rejalashtirish va boshqarishda agrosanoat tovarlari narxini shakllanishi, tarkibi o'zgarish qonuniyatlarini o'rganish e'tiborga olish alohida ahamiyatga ega.

Masalan, qishloq xo'jaliki mahsulotlari tez buziluvchanlik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun bahoni belgilashda ishlab chiqaruvchidan ko'ra iste'molchi hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Bu iste'mol bozori marketingini boshqarish xususiyatlarini belgilovchi omillardan hisoblanadi.

Sanoat sohasidagi traktor ishlab chiqaruvchi zavod o'z mahsuloti bo'lgan traktorni bozorga olib chiqib ma'lum bir bahoni taklif qilsa-yu, xaridor bu bahoga ko'nmagan taqdirda, sotuvchi o'z maqsadini to'la ifoda qiladigan baho darajasi shakllangunga qadar mahsulotni saqlab turish imkoniyatiga ega. Chunki bu muddat orasida sanoat mahsulotini iste'mol qiymati o'zgarmaydi. Bu mahsulot iste'molchiga haqiqatdan ham nihoyatda zarur va yana buni ustiga mamlakatda inflyatsiya jarayoni mavjud bo'lsa, bozordagi muvozanat, baho ko'proq ishlab chiqaruvchilarni ta'sirida o'zgarada. Lekin bozordagi turli ishlab chiqaruvchilarni o'rtasidagi raqobat bu xususiyatni butunlay yo'q qilmaydi, balki tovar bahosini yuqori yoki past bo'lishiga ta'sir etadi. Marketing qishloq xo'jalik mahsulotini bozorga olib chiqqan ishlab chiqaruvchi butunlay boshqa vaziyatda ekanligiga e'tibor berishi lozim. Masalan, ishlab chiqaruvchi bozorga sut olib chiqib, unga ma'lum bir bahosini taklif qilsa-yu, iste'molchi bu mahsulotga unga qaraganda kamroq bahoni taklif qilganda, sut tezda buziladigan mahsulot bo'lganligi uchun ishlab chiqaruvchi baho belgilashda iste'molchi taklifiga yon berishiga majbur. Bu xususiyat ya'ni qishloq xo'jalik mahsulotlarini vaqt o'tishi bilan qisman yoki mutloq o'z iste'mol qiymatini yo'qotishi, keraksizlik holga kelib qolishi, turli mahsulotlarda turlicha bo'lsa-da, biroq bunday masalaning mohiyati o'zgarmasligini yodda tutmoq zarur.

Bu ishlar hozirgi vaqtda har ikkala tomon uchun o'ta foydali tadbir hisoblanadi. Yuqorida nomlari keltirilgan tayyorlash va xarid qilish ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar yirik shaharlar dexqon bozorlarida o'z do'konlarini ochsalar bozordagi noqonuniy olib sotarlarga zarba bergan va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozor baholarini pasaytirishga ijobiy ta'sir etgan bo'lar edilar.

Agrosanoat mahsulotlari bozorida o'tkazilgan marketing tadqiqoti bu bozorda hozirgi kunda kupgina kamchilik va imkoniyatlar mavjud ekanligini kursatmokda. Ularni kuyidagicha guruhlash mumkin:

- agrosanoat mahsulotlarining bir qancha turlarini ishlab chiqarish hajmi va samaradorligining pastligi;
- agrosanoat mahsulotlari bozori subektlari urtasida barkaror va o'zaro foydali xo'jalik alokalarining yuksak darajada emasligi;



- bozor infratuzulmasining rivojlanishi orqada kolyotganligi;
- agrosanoat maxsulotlari bozorida rakobatchilikning pastligi Q va narxlarining yukoriligi;

bozor jarayonlarining davlat organlari tomonidan joylarda yetarli tarzda boshqarilmayotganligi; Shunday kilib, agrosanoat bozorida yuzaga kelgan bozor holatini mukammal darajada barkaror deb bo'lmaydi. Bu axvoldan chi qib ketish uchun esa tashkil etilgan va tartibga solinuvchi agrosanoat maxsulotlari bozori modelining tarkibiy qismi xisoblanuvchi maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni tezkorlik bilan amalga oshirish kerak bo'ladi.

Viloyatlarda kooperativ tamoillarida faoliyat yurituvchi hamda eng kulay narx kon'yunkturasidan kelib chikkan holda maxsulotni saklash va sotish uchun real imkoniyatlarga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan uyushma va kompaniyalarni yaratish zarur. Ular kishlok xo'jalik maxsulotlarini saklash va tashish uchun o'z moddiy texnika bazalarini, shuningdek, agrosanoat maxsulotlari ishlab chiqaruvchilar manfaatlariga xizmat kiluvchi tula qiymatli savdo-xarid tuzilmalarni birlashtirish lozim bo'ladi.

Xulosa

Agrosanoat kompleksi marketingi qurilish, bank, sug'urta va boshqa tarmoq marketinglaridan farq qilib, o'z faoliyatini tarixiy, milliy, regional va tabiiy sharoitlami e'tiborga olib tashkil etmog'i lozim. mavsumiyligi, xo'jalik yuritish, mulkchilik shakllarining turli ekanligi, narxlarni belgilashdagi iste'm olchilar ustuvorligi kabi xususiyatlarinihisobga olgan holda amalga oshiradi. Bunda agromarketing kishilar hayot va faoliyati uchun birinchi darajali, zaruriy tovarlar bilan ish yuritadiMahsulot yetishtirishda yer asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Biznes marketing asoslari*
2. *uz.denometr.com, uza.uz*



SOLIQ SIYOSATI VA UNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI

Jumaniyazova Yodgora Egamovna

Xorazm viloyati Xiva tumani

42-son maktabning Iqtisodiy

bilim asoslari o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada respublikamizdagi soliq siyosati va uning iqtisodiyotdagi o'rni juda muhimligi, soliqlar davlatning iqtisodiy tayanchi ekanligi takidlangan.

Kalit so'zlar: soliq, davlat, qonun, vazifa, iqtisod, bozor, biznes, moliya, pul.

Soliqlar bevosita davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir, ya'ni davlat o'zining vazifalarini bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi.

Jamiyatda iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni ob'yektiv amal qilinishini talab etadi. Soliqlarning ob'yektiv zarurligini bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ikki holat bilan ifodalash mumkin:

-birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi;

-ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari bilan;

Davlatning bajaradigan funksiyalari va vazifalari ko'p bo'lib, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning yangi vazifalari paydo bo'ladi. Bularga kam ta'minlanganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini (sanoatda, qishloq xo'jaligida, moliya tizimida) tashkil qilish kiradi. Shu bilan birga, davlat jamiyat a'zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o'zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlab turishga, texnika va o'qodirilarga ham mablag'lar sarflaydi, qolaversa, davlat fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib intizom o'rnatish, uni boshqarish funksiyalarini bajarish uchun ham ko'plab mablag' yo'naltirishga majbur. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular uchun manba bo'lgan soliqlarni ham ob'yektiv zarur qilib qo'yadi.

Hozirga qadar davlatning funksiyalarini bajarish uchun lozim bo'lgan moliyaviy mablag'larni shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo'llanilgan emas. Demak, hukmron kuch sifatida davlat mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar ham amal qiladi. Ma'lumki, jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat. Ana shu murakkablik bevosita soliqlarga ham tegishliki, bu holat soliqlarning iqtisodiy mohiyatini teran anglashni taqozo etadi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi.

Soliqlar, yig'imglar, bojlar va boshqa to'lovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslari tashkil topadi. Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish samarali davlat iqtisodiy siyosatini olib borishga, xususan, moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat byudjetini shakllantirish, soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi usuli hisoblanadi.

Soliq tushunchasi – iqtisodiy munosabatlarda asosiy o'rinni egallaydi. Uning xarakterli tomoni shundaki – u tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan ularga mulkchilik, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruv huquqida tegishli bo'lgan pul mablag'larini davlat va munisipal tuzilmalarni moliyaviy ta'minlash maqsadida begonalashtirish shaklida undiriladigan majburiy, yakka tartibdagi qaytarib berilmaydigan to'lovlarni aks ettiradi, ya'ni soliq – davlat tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va fuqarolardan majburiy qonuniy tartibda belgilangan stavkalar bo'yicha, soliq to'lovchining bundan biron bir muayyan manfaat ko'rishi bilan bevosita bog'lanmagan tarzda undiriladigan pul yig'imi.

Hozirgi vaqtda soliqlar vositasida davlat daromadlarining asosiy qismi shakllantiriladi. Bozor munosabatlarining shakllanishi davrida soliqlar korxonalarning iqtisodiy faoliyatini tartibga solishning bilvosita quroli hisoblanadi. Soliq to'lash xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va fuqarolar bilan davlat o'rtasida yangidan yaratilgan qiymatni taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Biror bir jamiyatni soliq tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki soliqlar byudjet daromadlari (pul fondi)ni tashkil etishning asosiy vositasi bo'libgina qolmay:

-mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga;



- ishlab chiqarishni rag'batlantirishda investisiyalarni ko'paytirishga;
- raqobatbardosh mahsulot hissasini ko'paytirishga;
- kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga;
- xususiy korxonalar ochish bilan bog'liq bo'lgan bozor infratuzilmasini barpo qilishga;
- umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga va boshqalarga xizmat qiladi.

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bir tomondan uning ichki mexanizmiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan boshqaruvning xarakteriga, ijtimoiy-siyosiy holatga, muvozanatga bog'liq bo'ladi. Mazkur jarayonda ijtimoiy siyosat alohida rol o'ynaydi. Ijtimoiy siyosat o'z navbatida ichki va tashqi madaniy, ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy siyosat kabilarga bo'linadi. Iqtisodiy siyosat ham o'z navbatida moliya, pul-kredit, byudjet, soliq siyosati kabi turlarda amal qilib, ularning yaxlitligi makro iqtisodiy darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining asosiy ajralmas qismiga aylanadi. Shu o'rinda soliq siyosatining mazmuniga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, yuqorida qayd etilganidek, soliq siyosati iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to'lovlarni amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir.

Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo'nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o'rtasidagi nisbatni ta'minlash kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi. Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Soliq Kodeksi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni, hukumatning boshqa soliqqa oid qonun, qarorlari, Prezident Farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.K. Xudoyqulov. Soliq tizimi.
2. Malikov T.S., Jalilov P.T. Budjet-soliq siyosati.
3. Malikov T., Haydarov N., "Budjet daromadlari va xarajatlari.



O'QUVCHILARGA IQTISODIY TARBIYA BERISH ASOSLARI

Oripova Ra'no Tolibovna

Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani
Qo'shtepa 1-son kasb-hunar maktabi
Biznes asoslari fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quchilarning bilim doirasini kengaytirish, ularga iqtisodiy tarbiya berish yo'llari va usullari haqida fikr bildirilgan. Ta'limda iqtisodiy tarbiyaning ahamiyatini ochib berish orqali o'quvchining ongida raqamli iqtisod va uning inson xayoti faoliyatidagi o'rnini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, iqtisod, tarbiya, alloma, fikr, raqamli iqtisod, so'rovnoma, mulk, tejamkorlik.

Inson dunyoga kelibdiki, u albatta komillikka intiladi. Jamiyatda o'z o'rnini, mavqeyini topishga harakat qiladi. Insonga bu jarayonda ta'lim bilan tarbiyaning ahamiyati kattadir. Ta'limning negizida tarbiya ham mujassamdir. Biz bola tug'ilishi bilan tarbiyalab boramiz. Buni qilma, bu to'g'ri, bunisi esa xato degan so'zlar orqali farzandlarimizni tarbiyalaymiz. O'zimiz tarbiya berish jarayonida ta'limni ham beramiz. Bola bog'chaga borganda ta'lim va tarbiya uzviyligi boshlanadi.

Tarbiya tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon ekan, tarbiyachilar ham bilim va tajribaga ega bo'lgan kishilar bo'lishlari maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachining jonli nutqi, tarbiyalanuvchilarning o'qish va jamoatchilik ishlari, havaskorlik to'garaklarida tarbiya berish vositasi hisoblanadi.

qanday muhitda tarbiyalanganligi uning jamiyatga moslashuvida katta to'siq bo'lmasli uchun turli usullardan foydalanish kerak. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham o'z «Murojaatnoma» larida ham sharq donishmandlarining fikridan keltirib «Eng katta boylik – bu aql- zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik- bu bilimsizlikdir» shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzliksiz hayotiy ehtiyojlarga aylanish kerak. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart” – deb bejiz aytganlari yo'q.

Iqtisodiy rivojlanishning asosiy kuchi - bu inson. Demak, bugungi kunda bizlar iqtisodiy bilimlarga ega bo'lmog'imiz, iqtisodiy tarbiyaga ega bo'lgan, yetuk, har tomonlama barkamol shaxslarni shakllantirishimiz zarurdir. Iqtisodiy tarbiya bu tarbiyaning bir turi hisoblanadi.

Iqtisodiy tarbiya insoniyat paydo bo'lishi bilan birga paydo bo'lib, usiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham faoliyat ko'rsatadi olmaydi. Yosh avlodni yoshligidan hatto jajjiligidan iqtisodiy bilimlarini ular ongida shakllantirib borish avvalambor, bu borada ota-onalar va biz pedagoglar e'tiborli bo'lishlari kerak. Biz yosh avlodga iqtisodiy tarbiya berish jarayonida ularni iqtisodiy ongini ham o'stirib boramiz.

Milliy iqtisodiyotni o'tmishdagi allomalarimizning ilg'or iqtisodiy va ta'lim – tarbiyaga oid qarashlari asosida tahlil qilib, bobokalonlarimizni ilmiy merosi bilan bog'lab o'rganishning asosiy tomoni shundaki, unda zamonaviy uslublarni qo'llash orqali ularni yaratib qoldirgan na'munalariga nazar solmay ilojimiz yo'q.

Buyuk allomamiz Yusuf Xos Hojib ham o'z asarlarida «Iqtisodiy tarbiyada kishi mulkiy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o'zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar hisoblanadi»– deb aytib o'tganlar.

Buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino «Yosh avlodni komillikka eltuvchi yagona yo'l bu – iqtisodiy tarbiya» – deb aytganlar. Ular quyidagilarni asosiy o'ringa qo'yganlar:

-mulkiy tarbiyaga oid ko'nikmalar va malakalarini yosh avlodga shakllantirish hamda takomillashtirish;

- o'g'il bolalarni oiladagi hisob –kitob ishlaridagi fikr doirasini kengaytirish va shu haqidagi munosabatlarga tayyorlash;

- yosh avlodlarni haqiqiy, chidamli, bardoshli va kuchli harakterli shaxslar sifatida rivojlantirish;

Imom Muhammad al – Buxoriy o'z asarlarida tarbiyani sakkiz bo'limga ajratadi. Shular ichida «Mulkiy tarbiya», «Tejamkorlik tarbiyasi» mavjud. Hadisshunos bobomiz yozib qoldirgan hadislarida ham iqtisodiy tarbiyaga oid bir qancha hadislarini ko'rishimiz mumkin.



Dasturxonga to‘kilgan taom va ushoqlarni terib yeydigan odamning gunohlari to‘kiladi;
Vazminlik, tejamkorlik, bama’ni xomushlik payg‘ambarlik (sifati) ning yigirma to‘rtidan bir bo‘lagidir;

Boylik mol-u dunyoning ko‘pligi bilan emas, balki nafsning to‘qligi bilandir;

Arqon olib tog‘da o‘tin terib kelib, uni sotib yeb va sadaqa qilgan odam, tilanchilik bilan kun kechirgandan yaxshidir.

Abdulla Avloniy bobomiz esa shunday deydi: «Inson hayotini yuksaltiruvchi muhim samarali vosita, hayotga iqtisodiy tayyorgarlikdir».

O‘quvchilar bilim dargohiga qadam qo‘yar ekanlar avvalo, dunyoni anglashga harakat qiladilar. Biz arzimagan degan, oddiy narsalar ham ularga juda qiziqarli va muhimday tuyuladi. Biz ularga iqtisodiy tarbiya berishda huddi shunday narsalar orqali ta’sir qilishimiz mumkin. Bu davrda bolalar jamiyatda o‘z o‘rnini topishga harakat qiladilar. O‘zlari mustaqil ish qiladilar. Mustaqil qaror qabul qiladilar. Ota - onalari bergan pulni mustaqil sarflaydi. Xuddi shunday vaziyatda ularda iqtisodiy tarbiyani to‘g‘ri shakllantirish kerak. Bunday iqtisodiy tarbiyani esa darsliklardagi mavzular orqali singdirib borishimiz zarur.

Kasb hunar maktabi 1-kursdagi o‘quvchilarning «iqtisod», «pul», «tejamkorlik» tushunchalari haqidagi fikrlarini o‘rganish uchun so‘rovnoma o‘tkazildi. Bu so‘rovnoma savollari:

Pul nima?

Tejamkorlik deganda nimani tushunasiz?

Tejamkorlik va iqtisodni qaysi fanlarda ko‘proq o‘rganamiz?

Iqtisod bilan raqamli iqtisodni qanday tushunasiz?

Endi bu o‘quvchilarining javoblarini ko‘rib chiqamiz:

-pul bu bizni ehtiyojlarimiz uchun kerak. Pul topish uchun ma’lum bir kasb va hunar egasi bo‘lish kerak. Pulni beo‘rin sarflamaslik kerak;

-tejamkorlik bu biror narsani noto‘g‘ri sarflamaslik. Uvol qilmaslik, ehtiyot qilish. Hamma narsalar qachondir tugashini bilishimiz kerak;

-men tejamkorlikni matematika va fizika fanlaridan o‘rgandim. Men esa adabiyot va tarix fanlaridan o‘rgandim. Geografiya va biologiya fanlaridan hamma narsa bir – biriga bog‘liqligini, har bir narsa kerakligini o‘rgandim;

-iqtisod bu insonning o‘z hayotini tartibga solingan ko‘rinishi. Har bir narsada iqtisodni ko‘rishimiz mumkin. Biror bir narsani yaratishimiz uchun iqtisod kerak bo‘ladi. Iqtisod so‘zi tejamkorlik so‘zi bilan o‘xshashdir. Raqamli iqtisod esa iqtisodni yanada takomillashtirilgan ko‘rinishidir.

Bu so‘rovnomalarni tahlil qilar ekanmiz bola ulg‘aygan sari saviyasi ortib, dunyo qarashi kengayib boradi. Shunga ko‘ra tarbiya usulini ham o‘zgartib, takomillashtirib borishimiz kerak. Bola fanlarni o‘zlashtirib borish jarayonida hayotga ham kerakli bo‘lganlarini, hayotga bog‘lay olishni bilishi kerak. Biz hayotga bog‘lab o‘rgatgan ta’limimiz asosida tarbiya yotadi. Albatta, ta’lim ham, tarbiyani ham zamonga, yangi texnologiyalarga hamohang olib borishimiz kerak ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni mamlakatimiz Parlamentiga 2020 yilgi Murojaatnomasi.

2. Xo‘jayev N., Hasanboyev J. Iqtisodiy pedagogika. –T.: TDIU, 2011.

2. I.Inomov. Iqtisodiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. -T.: Fan va texnologiyalar, 2010.

3. www.tadqiqot.uz



BYUDJET DEFITSITI: MOHIYATI, TA'RIFI, TURLARI VA VUJUDGA KELISH SABABLARI

Satvoldiyeva Dildora Mashrabovna
Andijon shahar 1-son kasb-hunar
maktabi biznes asoslari fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlatning byudjet defitsiti, uning mohiyati, ta'rifi, turlari va vujudga kelish sabablari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: byudjet defitsiti, tur, daromad, xarajat, qarz, inqiroz, mablag', ta'sir.

Nazariy jihatdan olib qaralganda byudjetning sog'lom (normal) faoliyat ko'rsatishi odatda, unga tegishli bo'lgan daromadlar va xarajatlarning tengligini taqozo etadi. Haqiqatdan ham u yoki bu miqdordagi xarajatlarni amalga oshirish uchun byudjet shu miqdordagi daromadlarga ega bo'lishi kerak. Aks holda bu xarajatlarni amalga oshirishning iloji bo'lmaydi. Byudjet daromadlari va xarajatlarning tengligi byudjetning balanslashtirilganligidan dalolat beradi.

Amaliyotda byudjet daromadlari va xarajatlarning tengligiga hamma vaqt ham erishilavermaydi. Ayrim hollarda byudjetning daromadlari uning xarajatlardan ko'p bo'lishi mumkin. Bunday byudjet profitsitli byudjet, deyiladi. Aksincha, ba'zi hollarda esa byudjetning xarajatlari uning daromadlaridan ko'proq bo'ladi. Shunga muvofiq ravishda byudjet xarajatlarning byudjet daromadlaridan ko'p bo'lishiga byudjet defitsiti deyiladi.

Yuqoridagi jihatlardan olib qaraganda byudjet-soliq siyosatining tarkibiy qismi sifatida byudjet siyosatining yakuniy (miqdoriy) natijasi byudjet defitsiti, byudjetning balansliligi yoki byudjet profitsitida o'z ifodasini topishi mumkin. Biroq bularning har biriga qarab turib yakkayu yagona bo'lgan yakuniy xulosani chiqarishning iloji yo'q. Bu yerda gap shundaki, byudjetning balansliligi yoki uning profitsitli ekanligiga qarab turib oqilona byudjet siyosati va aksincha, uning defitsitli ekanligini inobatga olgan holda nooqilona byudjet siyosati yuritildi, deb bo'lmaydi. Chunki byudjet siyosatining yakuniy miqdoriy ifodasi sifatida ularning har biri o'zida ijobiy va salbiy tomonlarni mujassam etadi.

Byudjet defitsitini ma'lum bir belgilar asosida turkumlarga ajratish va uning tegishli turlarini ko'rsatish mumkin. Umuman olganda byudjet defitsitini quyidagi belgilar asosida turkumlarga ajratish maqsadga muvofiq:

- vujudga kelish sabablariga ko'ra;
- iqtisodiy mazmuni va ta'sirchanlik yo'nalishiga qarab;
- ishsizlikning darajasi bilan bog'langanligiga binoan;
- vujudga kelish xarakteriga muvofiq;
- rejaga munosabati bo'yicha;
- doimiyligiga nisbatan;
- davomiyligiga ko'ra;
- moliyalashtirish manbalariga bog'liqligiga qarab;
- davlat qarzlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha foizlarni to'lashning xalqaro metodologiyasiga binoan.

Vujudga kelish sabablariga ko'ra byudjet defitsitining quyidagi turlari bo'lishi mumkin:

- favqulodiy byudjet defitsiti;
- inqiroziy byudjet defitsiti;
- antiinqiroziy byudjet defitsiti;
- byudjetlari byudjet defitsiti.

Favqulodiy byudjet defitsitining negizida favquloddagi holatlar, ya'ni urushlar, tabiiy ofatlar va shunga o'xshashlar yotadiki, ulardan sug'urta qilinish murakkab yoki buning iloji yo'q. Favquloddagi vaziyatlarning oqibatlarini ogohlantirish va ularga barham berish uchun odatda, turli-tuman zaxira va byudjetdan tashqari fondlar shakllantiriladi.

Inqiroziy va antiinqiroziy byudjet defitsitlari iqtisodiyot, pul-kredit, moliya sohalaridagi inqirozlar va ularni bartaraf etish choralari bilan bog'liq bo'ladi. Shu munosabat bilan rag'batlantiruvchi va aksincha, rag'batlantirmovchi (taqiqlovchi, aks ta'sir ko'rsatuvchi) ahamiyatga ega bo'lgan byudjet defitsitlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Xalqaro amaliyotda byudjetlararo byudjet defitsiti, deyilganda odatda, mintaqaviy va mahalliy



byudjetlarning salbiy qoldig‘i tushuniladi. Mintaqaviy va mahalliy byudjetlarda bunday salbiy qoldiqlar quyidagilar natijasida vujudga kelishi mumkin:

- hududlarning byudjet va mulkiy huquqlari o‘rtasida nomuvofqlikning vujudga kelishi natijasida;

- mintaqaviy va mahalliy byudjetlar daromadlarini qisqartirish yoki oshirish xususida boshqa darajadagi hokimiyat organlari tomonidan qarorlar qabul qilinganda. Bunday byudjet defitsitini qoplash odatda, quyidagi yo‘llar orqali amalga oshiriladi:

- byudjetiy tartibga solish vositasida;

- byudjetlararo munosabatlarning turli-tuman shakllaridan foydalanish orqali.

Iqtisodiy mazmuni va ta’sirchanlik yo‘nalishiga qarab byudjet defitsiti quyidagi tarzda ikkiga bo‘linadi:

- aktiv byudjet defitsiti;

- passiv byudjet defitsiti.

Bunday turlarga (ko‘rinishlarga) ega bo‘lgan byudjet defitsitlarini boshqarish natijasida jamiyat yoki alohida olingan ma’muriy hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi rag‘batlantirilishi yoki aksincha, rag‘batlantirilmaslari mumkin.

Vujudga kelish xarakteriga muvofiq byudjet defitsiti quyidagi ko‘rinishlarga ega:

- tasodifiy (kassaviy) byudjet defitsiti;

- haqiqiy byudjet defitsiti.

Tasodifiy (kassaviy) byudjet defitsiti mablag‘larning byudjetga kelib tushishi va ularning byudjetdan sarflanishi o‘rtasidagi kassaviy (davriy) uzilishlarning mavjudligi natijasida paydo bo‘ladi. Haqiqiy byudjet defitsiti esa byudjetdan qilinadigan xarajatlarning doimiy ravishda ortib borishi va undan daromadlarning haqiqatda ortda qolishi munosabati bilan vujudga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.S.Malikov Byudjet-soliq siyosati.

2. Афанасьев М. Бюджетная политика и бюджетный процесс: Материалы к лекциям.

3. Шаховская Л., Хохлов В. Бюджетирование: теория и практика.



ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISHDA TRANSPORT-LOGISTIKASINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Tohirov Dostonbek Baxtiyorjon o‘g‘li
Tohirov Asilbek Tolibjon o‘g‘li
Andijon mashinasozlik texnikumi talabalari

Annotatsiya: maqolada O‘zbekistonda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishda transport-logistikasining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlari: transport-logistikasi, xom-ashyo, bojxona, ishlab chiqarish.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikas iqtisodiyot sohasida bir qator o‘zgarishlar yuz bermoqda, ayniqsa ishlab chiqarish texnologiyalarini yangilash va mavjudlarini modernizatsiya qilish, shu bilan birga respublika iqtisodiyotini umumiy difersifikatsiyalash borasida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan va bevosita hukumatimiz tomonidan o‘zbek ishlab chiqaruvchilarini qo‘llab-quvvatlash orqali jahon bozoriga eksportbop va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga harakatlar olib bormoqda. Lekin, afsuski shuncha urinishlarga qaramay ham ichki ham tashqi bozorlarda o‘zbek mahsulotlari hali ham unchalik raqobatbardosh emas, bunga asosiy sabab sifatida:

Birinchidan – asosiy xom-ashyo mahsulotlarini hali ham chet el mamlakatlaridan import qilinishi bo‘lsa;

Ikkinchi sabab bu – ushbu xom-ashyo mahsulotlarini olib kelish va tayyor bo‘lgan mahsulotni kerakli nuqtalarga yetkazib berish xarajatlarining juda yuqoriligi bilan izohlanmoqda va h.k.

Mana shu yuqoridagi ikki asosiy sabablar o‘zbek mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlarini oshib ketishiga bu keyinchalik mahsulotni tan narxini ko‘tarilib ketishiga olib kelmoqda. Misol tariqasida shuni keltirmoqchimanki, O‘zbekistonda yetishtirilgan uzum va qovun mahsulotlarini Ukrainadagi holatini ko‘radigan bo‘lsak bugungi kunda ular unchalik ham raqobatbardosh emas, bunga bir qancha sabablar mavjud: O‘zbekistonda yetishtirilgan qovun mahsuloti Ukraina savdo majmualarida 4.5 AQSH doll miqdorida sotilmoqda, vaholanki Turkiyadan olib kelinadigan qovun navlari 2 doll atrofida turibdi. O‘zbekistondan olib kelinayotgan mahsulotlarni yoqotilish darajasi anchagina yuqori, ya’ni ular Ukrainaga yetib kelguncha anchagina zarar ko‘rmoqda va tan narxi ko‘tarilib ketmoqda.

Yuqorida sanab o‘tilgan muammoga e’tibor berib qarasak, asosiy gap transport-logistika xizmatlarining qimmatga tushishi oqibatida bo‘lmoqda. Barcha xarajatlar bilan tan narx deyarli 2 barobarga oshib ketmoqda, bundan tashqari importyorlar tovarni qabul qilguncha yoqotishlarga ham uchramoqda. Bularning barchasi milliy eksportyorlarni keyinchalik shartnomalar tuza olmasligiga olib kelmoqda. Bu faqat meva-sabzovot emas, balki chet eldan xom-ashyo olib keluvchilarga ham taalluqli. Ya’ni ular mamlakatimizga olib kirayotgan xom-ashyolari narxi qimmatlashib ketishi, tayyor mahsulotga ham ta’sir ko‘rsatmoqda.

Yuqoridagi barcha omillarni inobatga olgan holda shuni ta’kidlash kerakki, mamlakatimizda transport-logistika xizmatlarining o‘ta darajada qimmatligi mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tan narxini va ishlab chiqarish xarajatlarini oshib ketishiga sababchi bo‘lmoqda;

Keyingi sabablardan biri sifatida bojxona bojlarini keltirib o‘tishimiz ham darkor, agar bugungi bojxona bojlari darajasini ko‘radigan bo‘lsak, ular juda yuqori sanaladi. Bu asli proteksionizm va ichki ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun qilinayotgan ish bo‘lsada aslida bu ularga aks ta’sir qilmoqda. Ularni sarfxarajatlarini ortib ketishiga sababchi bo‘lmoqda;

Uchinchi sabab bu - mamlakatimizda vujudga kelgan byurokratizm kayfiyati bo‘lib qolmoqda. Buyrokratik hatti-harakatlar tadbirkorlarni va yuk tashuvchilarni ortiqcha vaqtini olib ularni yugurtirmoqda. Oqibatda rasmiylashtirishga ketgan vaqt mahsulot tannarxi qimmatlashishiga olib kelmoqda.

To‘rtinchida – bu sohaga axborot texnologiyalarini keng jalb etilmagani, keraksiz tekshiruvlardir.

Sanab o‘tilgan to‘rt sababdan kelib chiqib ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yechimlarni taklif qilmoqchimiz:

1. O‘zbekiston Respublikasida davlat xususiy sherikchiligi yoki to‘liq xususiy kapitallarni jalb qilgan holda logistika kompaniyalari sonini ko‘paytirish, logistika kompaniyalarini rivojlantirish



uchun xorijdan ekspertlarni taklif etish va qonunchilikdagi logistika faoliyatiga oid bandlarni takomillashtirish;

2. Yangi tashkil qilinayotgan logistika kompaniyalariga imtiyozlar berish va qo'llab-quvvatlash;

3. Bojxona qonunchiligini takomillashtirish, tekshiruvlar, ortiqcha hujjatlar talab qilish amaliyotini kamaytirish, to'liq elektron faoliyat ko'rsatish rejimiga o'tish, tadbirkorlar vaqtini o'g'irlamaslik;

4. O'zbekiston o'z tovarlari raqobatbardosh va arzon narxlarda iste'molchilarga yetib borishini xohlasa ko'proq transport-logistika infratuzilmasini takomillashtirishi, yaxshilashi va modernizatsiyalash, ko'proq xorijiy mamlakatlar bilan har qanday logistik tashuvlarni amalga oshirish uchun shartnomalar tuzishi va unga amal qilishi mamlakat iqtisodiyotini keyingi rivoji va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishda muhim omil hisoblaadi.

Yuqorida keltirilgan so'nggi band ayniqsa ishlab chiqarish xarajatlari va xomashyo narxini keskin pasayishida muhim omil hisoblanadi. Xalqaro yuk tashuvlari darajasini oshishi va tranzit yuk tashuvlarini ko'payishi har tomonlama iqtisodiyotni daromad topishiga imkon yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Transport-logistika xizmatini to'g'ri yo'lga qo'yilishi mamlakatimizga kirib kelayotgan va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar narxini kamida 30-35% gacha qisqartirish imkonini beradi. Bundan tashqari mamlakat iqtisodiyoti transit yuk tashuvlari hisobiha ham katta foyda ko'radi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdurahmonov Q X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. – T.: 2019
2. Dadaboyev Q. Logistika. – T.: Iqtisod-Moliya. 2007
3. Umarov D M., Bo'ronov M A. Logistika. – T.: Cho'lpon. 2016
4. Juraev M N., Yusupov A E. Transport logistikasi. Qarshi.2016



TURIZM SOHASIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TUTGAN O'RNI

Z.S.Djabbarova,

Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

R.Q.Jumaniyazova,

Urganch davlat universiteti

211-“Turizm” guruhi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasida axborot texnologiyalarining tutgan o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, axborot, axborot texnologiyalari, bron, kompyuter, kompyuter texnologiyalari.

Turistik korxonani rivojlantirish va amalga oshirish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu eng qisqa vaqt ichida transport vositalari va turistik turar joylar imkoniyatlari to'g'risida ma'lumotlar berish, joylarni tezkor bron qilish va ulardan foydalanishni avtomatlashtirishni ta'minlaydi. Ya'ni, bunda turistik xizmatlarni taqdim etish vazifasi amalga oshirilib, unga hujjatlar dizayni, chiptalar, hisob-kitoblar va qo'llanmalar, muammoni hal qilish bo'yicha ma'lumot kabilar kiradi. Bu zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qayta ishlash va axborot uzatish turizmida keng qo'llaniladi.

Turizm sohasida axborot texnologiyalari istalgan ma'lumotlarni boshqarish va qayta ishlash texnologiyalari sifatida kompyuter texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. Ushbu texnologiyalarning natijasi axborot texnologiyasi bo'lib, bu insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida mavjud bo'lgan. Biroq, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, xom ashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik qilmoqda. Xususan, turizmida axborot texnologiyalari mavjud yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rinni egallamoqda.

Axborot texnologiyalari o'zining yirik yo'nalishiga ega bo'lib, bu axborot texnologiyalari industriyasi sifatida uning tarkibini kompyuter, aloqa tizimi, ma'lumotlar ombori, bilimlar ombori va u bilan bog'liq faoliyat sohalari tashkil qiladi. Shunga monand ravishda turizm industriyasi rivojlanib boradi.

Axborot texnologiyalari jamiyat axborot zaxiralaridan foydalanishning eng muhim jarayonlaridan biridir. Hozirgi kunga kelib, u bir necha evolyutsion bosqichlarni bosib o'tdi. Jumladan, ulardan har birining almashinuvi asosan fan va texnika taraqqiyotining rivojlanishi va axborotni qayta ishlashning yangi texnik vositalari paydo bo'lishi bilan izohlanadi.

Demak, axborotni qayta ishlash texnologiyalarining asosiy texnik vositasi bo'lib shaxsiy kompyuter xizmat qilmoqda, u texnologik jarayonlar konsepsiyasini anglash va undan foydalanishga va axborot tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Shunga asosan, shaxsiy kompyuterning axborot sohasiga tatbiq etilishi va aloqaning telekommunikatsiya vositalarida qo'llanilishi axborot texnologiyalarining rivojlanishida yangi bosqichni belgilab berdi.

Turizmida zamonaviy axborot texnologiyasi qo'llanilib, u o'z ichiga shaxsiy kompyuter va telekommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda foydalanuvchi ishining “do'stona” interfeysli axborot texnologiyasini oladi. Axborot texnologiyasini o'zlashtirish mumkin, bu esa cheklangan elementar amallar to'plamini yaxshi bilib olish sanaldi.

Turizmida axborot texnologiyalidan foydalanish orqali har qanday boshqaruv axborot jarayonlariga reaktivlashtirish, yig'ish, o'tkazish, saqlash, qayta ishlash, axborot va boshqaruv qarorlarini berish tartibi amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda axborot texnologiyalari ushbu proseduralar turli xil axborot tizimlarida amalga oshiriladigan vosita va usullar bo'lib hisoblanadi. Shu bois, turizm sohasi ixtisoslashib, bu barcha turli xil kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga imkon beradi. Buning uchun dasturiy mahsulotlar uchun global foydalanishdan oldin alohida sayyohlik firmasini boshqarish kompyuter tarmoqlariga asoslanishi lozim.

Bugungi kunga qadar turizm sohasida eng ko'p yangi kompyuter texnologiyalari mavjuddir. Masalan, global kompyuter tizimlari, multimedia, axborotni boshqarish bo'yicha axborot tizimlari va boshqalarni qidirish zamonaviyning eng katta ta'siri kompyuter texnik texnologiyalari reklama uchun masofadan boshqarish va turistik mahsulotni tarqatish va sotish uchun zarur. Ushbu turistik



mahsulotni ilgari surish va sotishning yangi turistik marketing kanallarini shakllantirish imkoniyati mavjud bo'ladir. Shularga muvofiq, turizm axborot texnologiyalari quyidagi turlarga bo'linadi:

- ma'lumotlarga ishlov beruvchi axborot texnologiyalari;
- boshqarishning axborot texnologiyalari;
- ofisning axborot texnologiyasi.

Hamda turistik korxonaning faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- axborotni boshqarish tizimlari;
- global bron qilish tizimlari;
- internet;
- multimedia tizimlari.

Turizm sohasida axborot texnologiyalarini amalga oshirish uchun axborot menejmenti zarur bo'lib, u axborot tizimlari sifatida u orqali sayohatlar, mehmonxonalar, mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish, tahrirlash va saqlash, turli xil hujjatlar (so'rovnoma, sayyohlik ro'yxati va turlar tavsifi) ma'lumotlarini taqdim etish amalga oshiriladi.

Umuman olganda, turizm sohasida axborot texnologiyalarining hozirgi zamon taraqqiyoti hamda yutuqlari turist faoliyatining barcha sohalarini axborotlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Bu esa jamiyatni axborotlashtirish axborotdan iqtisodiyotni rivojlantirish, mamlakat fan-texnika taraqqiyoti, jamiyatni demokratlashtirish va intellektuallashtirish jarayonlarini jadallashtirishni ta'minlaydigan jamiyat boyligi sifatida foydalanishga bog'liqdir. Shunga asosan, turizm axborot texnologiyalari barcha turizm tarmog'ida intellektual faoliyatning rolini oshirish bilan bog'liq obyektiv jarayon bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Informatika. Professor N.V. Makarova tahriri ostida. – Toshkent: Talqin, 2005.
2. Abduqodirov A.A., Xayitov A.G., Shodiyev R.R. Axborot texnologiyalari. – Toshkent, 2002.
3. www.ziynet.uz



MEHMONDO‘STLIK SANOATIDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISHNING BA’ZI JIHATLARI

D.Xudayberganov

UrDU Turizm va mehmonxona
xo‘jaligini boshqarish kafedrasida dotsenti,

H.Buranova

UrDU “Turizm (faoliyat turlari bo‘yicha)”
mutaxassisligi 201-guruhi magistratura talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada mehmondo‘stlik sanoatida innovatsiyalarning kadrlarni boshqarish subyektiga asoslangan holda ba’zi jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Mehmondo‘stlik, mehmondo‘stlik sanoati, innovatsion faoliyat, innovatsiya, innovatsion kadrlar menejmenti, kadrlarga oid yangiliklar, marketing

Mehmondo‘stlik sanoatida innovatsiya zarur va ularni boshqarish esa murakkab jarayon bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda innovatsiya va innovatsion faoliyat ilmiy-texnik taraqqiyot yo‘nalishi va ilmiy tadqiqotlar hamda ishlanmalar natijalarining amaliyotga joriy etilishi bilan bog‘liq jarayon sifatida qaraladi. Innovatsiyalar sohasi keng ko‘lamli bo‘lib, ilmiy-texnik ishlanmalar va ixtirolardan amaliy foydalanish hamda mahsulot, jarayon, marketing va mehmonxonadagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi.

Innovatsiya o‘zgarish omili yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, texnologik jarayonlar, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishning yangi xizmatlari va yangi yondashuvlari sanaladi. Zamonaviy talqinda “innovatsiya” atamasini Y.Shumpeter birinchi marta qo‘llab, innovatsiya - bu yangi material va qismlardan foydalanish, yangi jarayonlarning joriy etilishi, yangi bozorlar ochilishi, tashkiliy shakllarning kiritilishiga asoslangan barcha yangi uslublarning yangicha qo‘shiluv va tijoratlashuvdan iborat hosila funksiyalarining jiddiy o‘zgarishidir, deb ta’kidlaydi.

Innovatsiya – turizm bozorida yangi mahsulot, yangi hodisa yoki xatti-harakat bo‘lib, u turistni o‘ziga jalb qiladi. Uning ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi va tadbirkorga daromad keltiradi. Shunga asosan, innovatsion rivojlanishni belgilovchi bozorga oid kon’yunktura va raqobat, muhit, kadrlar va resurslar kabi omillardan iborat bo‘ladi. Bu mehmondo‘stlik industriyasi ham tegishlidir.

Mehmonxonalarda turli sohalarda yuz berayotgan doimiy o‘zgarishlar innovatsiyalarga turtki beradi. Ulardan har birida yangiliklarning maqsadlari barqaror va uzoq muddatli iqtisodiy o‘rnatishni ta’minlashga qaratilgan yangi xizmatlar joriy qilishdir. Mehmondo‘stlik munosabatlarini amalga oshirishda innovatsiya – mijoz talab qilgan va mehmonxona uchun samaraga erishish maqsadida yangilikni joriy etish natijasidir. Yoki innovatsiya - tavakkalchilik xavfi bilan bog‘liq har qanday yaratuvchanlik faoliyatining aniq natijasi bo‘lib, turistlarning ehtiyojlarini to‘laroq qoniqtiruvchi xizmatlarni o‘lga surilishi va joriy etilishini ta’minlaydi.

Mehmonxonalar faoliyatida olib borilayotgan islohotlar va turistik bozorda kadrlarga oid yangiliklar mehnat jarayonining ajralmas qismiga aylangan va ularni boshqarishni talab qiladi. Ushbu faoliyat sohasi innovatsion kadrlar menejmenti (IKM) bo‘lib hisoblanadi.

IKM - bu mehmonxonalarda tashkil qilinadigan o‘quv kurslari, innovatsion menejment va soha xodimlarini boshqarish sohasining majmuasidir. IKM orqali kadrlarga oid ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni yangilash, rivojlantirish va usullariga barham beriladi.

IKM obyekti - mehmonxonadagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarning kadrlari, kadrlar tizimlarini yangilash, rivojlantirish jarayonlari, innovatsion xossa, ehtiyoj va mezonlaridir.

IKM subyekti - mehmonxona va boshqa tuzilmalarning kadrlar va mehnat xizmatlarini tashkil etuvchi bo‘limlar, sektorlar, guruhlar, turli mutaxassislardir.

Mehmonxonadagi IKMning maqsadi - mehmonxonaning joriy va istiqboldagi manfaati va maqsadlari, xodimlarni rivojlantirishning zamonaviy qonuniyatlari, standart talablariga muvofiq kadrlar tizimini yangilashning samarali miqyoslari va sur‘atlarini ta’minlashdir.

IKMning vazifalari turli guruhlar bo‘yicha tasniflanadi. IKMning boshqaruv obyekti bo‘lgan kadrlarga oid yangiliklarni ro‘yobga chiqarish sohasidagi vazifalariga quyidagilar kiradi:

- inson resurslarini rivojlantirish sohasida ilmiy-analitik ishlarni tashkil etish va o‘tkazish, mehmonxonaning kadrlarga oid yangi muammolarini izlab topish va hal qilish;
- kadrlarga oid yangiliklarning samaradorligiga baho berish;



- innovatsion kadrlar siyosatining istiqbollari, konsepsiyalari, rejalari, dasturlari va loyihalarini ishlab chiqish;

- kadrlarga oid yangiliklarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash;

- kadrlarga oid yangiliklarni tashkil etish va ularni ro'yobga chiqarilishini nazorat qilish;

- kadrlarga oid yangiliklarni ilmiy asoslash va h.k.

Kadrlarga oid yangiliklar (KOYa) loyihalari ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Buni tashkil etish “KOYani ishlab chiqish - KOYani joriy etish” tizimida amal qiladi va uning quyidagi tashkiliy shakllari farqlanadi:

- aloqa guruhi (KOYa loyihasida kadrlarga oid tadqiqot olib borish va uni tugashidagi ijobiy natijalarni ta'riflash);

- xodimni kadrlar xizmatidan KOYani ishlab chiquvchi bo'limga o'tkazish (KOYa loyihalari bilan bevosita tanishish, tuzatish kiritish va muvaffaqiyatli amalga oshirishga erishish);

- muammoli guruh (turli bo'linma mutaxassislaridan yig'ilgan mutaxassislarni vaqtinchalik guruhi sifatida KOYani ishlab chiqish va amalga oshirish o'rtasidagi munosabatni yaxshilash tashkil qilinishi);

- sifat to'garagi (bu mutaxassislar guruhi sifatida ixtiyoriylik asosida tashkil etiladi hamda doimo mehnatni tashkil qilish, uning unumdorligi va sifatini oshirish yo'llari muhokama qilinadi);

- intrapreneurlik (innovatsion tadbirkorlik faoliyati ichidagi shakli sifatida tashabbuskor va ijodkor xodim yoki “intrapreneur”dan iborat bo'lib, yangiliklarni amalga oshirish imkoniyatiga ega).

Mehmonxonalarda innovatsiya menejment mavjud funktsiya va tamoyillar asosida innovatsiyalarni boshqarish jarayonini anglatadi. Bu esa mehmonxona strategiyasini shakllantirish tizimi qismi va uning raqobatbardosh strategiyasi asosidir. Innovatsion faoliyat vazifasi uzoq muddatli istiqbolda samarali ishlashni ta'minlash uchun doimo o'zgarib turadigan turli tashqi omillarga moslashuvchan tizimni yaratishdir. Ammo, mehmonxona biznesidagi innovatsion yondashuv ilg'or axborot texnologiyalari bilan birga menejment sohalariga ta'sir ko'rsatadigan butun innovatsiya majmui va eng samarali foydalanishni nazarda tutadi.

Marketing faoliyati ham innovatsiya obyekti sifatida qaralishi mumkin. Marketing yangiliklari marketing tadqiqotlarining yangi usullari, strategiya va tadbirlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishga yo'naltirilgan bo'ladi. Marketing innovatsiyalarining paydo bo'lishi boshqa yangiliklarni kiritish bilan bog'liq.

Boshqaruv yangiliklari mehmonxona tashkiliy tuzilmasi va uning individual unsurlari, xodimlarni boshqarish usullarining o'zgarishini anglatadi. Ular muqarrar ravishda boshqaruvning boshqa sohalarida o'zgarishlarga olib keladi.

Texnologik yangilik xizmat ko'rsatish jarayonidagi transformatsiyalar bilan bog'liq. Mehmonxona uchun ular birinchi navbatda turli jarayonlarni boshqarish tizimlarida zamonaviy axborot-kompyuter texnologiyalarini joriy qilishda ifodalanadi.

Innovatsiyalar bilan bog'liq jarayonlar o'ziga xos xususiyat kasb etar ekan, unga xos bo'lgan innovatsion menejmentning asosiy funksiyalari bo'lib, rejalashtirish, marketing, tashkil etish, innovatsiyalar samaradorligini nazorat qilish va tahlil qilish kabilar hisoblanadi. Hamda innovatsiyalarni umumiy shaklda amalga oshirish uchun axborot va tadqiqotlarni to'plash, innovatsiya konsepsiyasini ishlab chiqish, innovatsiyani amalga oshiruvchi tadbirlarni amalga oshirish hamda innovatsiyalarni joriy etish samaradorligini nazorat qilish kabilar zarur bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “Turizm to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekistonning yangi qonunlari. Toshkent sh., 2019-yil 18-iyul, O'RQ-549-son
2. Alieva M.T. Mehmonxona xo'jaligi menejmenti. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2011.
3. www.uzbektourism.uz



IQTISODIY BILIM ASOSLARI FANINI O‘QITILISHIGA QO‘YILGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Yaxshimuratova Marxabo Ibodullayevna

Shovot tumani 42-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (90) 649 66 99

marxaboibodullayevna_6699@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola iqtisodiy bilim asoslari fanini o‘qitilishiga qo‘yilgan zamonaviy talablar haqida.

Kalit so‘zlar: Bank, soliq, talab, cheklanganligi muammosi, “Sherigini top”, “Idrok xaritasi”, “Zinnama zina”, “Geometrik domino”.

2017-2021 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida o‘quvchilarning funksional savodxonligini fivojlantirish milliy tadbirlar rejasiga kiritilgan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida qabul qilingan qarorda umumiy o‘rta ta’limning yangi davlat ta’lim standartlari ilova tarzda berilgan. Yangi DTSning maqsadi-umumiy o‘rta ta’lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy -iqtisodiy islohatlar,rivojlangan mamlakatlar ilg‘or ish tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Maktab ta’limini rivojlantirishni asosiy nuqtasi sifatida maktab o‘quvchilarining fuksional savodxonligini rivojlantirish ularni jamiyatda faol ishlash, o‘z taqdirini belgilash, o‘z-o‘zini takomillashtirish hamda o‘z - o‘zini ro‘yobga chiqarish qobiliyatlarini talab qiladi.

Iqtisodiy bilim asoslari fanini o‘zlashtirishda maktab o‘quvchilari egallashlari zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va matakalarga Davlat tomonidan qo‘yiladigan talablar bayon qilinadi. Respublikamizning kelajagini barpo qiluvchi yosh avlodga hozirgi zamon fanining yangiliklarini, uning murakkab qirralarini o‘rgatish bilan bir qatorda tarixiy merosimizni o‘rganshga imkoniyat tug‘dirilishi lozim. Iqtisodiy bilim asoslari fani Davlat ta’lim standartining me‘yor ko‘rsatkichlari dinamik xarakterda bo‘lib, ta’lim jarayonining takomillashuvi, fan va texnika yutuqlarining natijalari bilan to‘ldirilib boriladi.

O‘rta umumta’lim maktabining bitiruvchisi 8-9-sinflarda ”Iqtisodiy bilim asoslari“ fanini o‘rgangandan so‘ng, quyidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur:

- iqtisodiy resurslarning ehtiyojlarga nisbatan cheklanganligi muammosi, imkoniyatlar ichidan birini yoki bir nechtasini tanlashga olib kelishini tushunib yetish;

- tanlovning muqobil qiymatini aniqlay olish va uni tanlov natijasini baholashda qo‘llay olish;

- iqtisodiy qaror qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- ishlab chiqarish va uning omillarini tavsiflash;

Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy- ma’rifiy o‘zgarishlar ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirishni taqozo etadi

Ta’lim sohasida Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy maqsadi hozirgi ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida erkin demokratik jamiyatga moslashgan, Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga kirisha oladigan, faol, ma’navan yetuk, barkamol, har tomonlama komil insonni tarbiyalashdan iborat. Ushbu maqsad yo‘lida amalga oshirish uchun ta’lim tarbiya jarayonida hozirgi zamon ta’lablariga mos keluvchi yangi, turli didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkun. Iqtisodiy bilim asoslari darslarida mavzularini o‘qitishda innovatsiyon texnologiyalardan foydalanish uchun quyidagi didaktik o‘yinlar tavsiya etiladi. “Sherigini top”, “Idrok xaritasi”, “Zinnama zina”, “Geometrik domino”, “Tushunchalar tahlili”, “Baliq skeleti”,va hokoza didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishlarini ortirishimiz ularni fikrlash qobiliyatini o‘stirishimiz mumkun. O‘tilgan mavzularni mustahkamlashda uchun “Aqliy hujum”, “Tezkor savol javob”, “Ha,yoq” oyinidan foydalanishimiz mumkun. Misol qilib oladigan bo‘lsak “ha yoq” oyini,bu o‘yin o‘quvshini tez va to‘g‘ri fikrlashga o‘rgatadi. Bundan tashqari hozirgi globallashev zamonida AKTdan foydalartish kundalik hayotimizning dolzarb talabi hisoblanib, jamiyatni globallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar yangi tushimchalar haqida rasmiy bilimlani



to‘plamasdan, balki ulami tushunib olishlari juda muhim. Iqtisodiy bilim asoslari fanini o‘qitish yanada samarali bolishi uchun o‘quv mashg‘ulotlari davomida o‘qituvchilar AKTni ishlab chiqishlari va undan foydalanishni rag‘batlantirishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvor yonalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi Ф-49-47-sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb–hunar ta’limining davlat ta’lim standartlari”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 187-sonli qarori.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 1-ҚИСМ

(9-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000